



Shahriddin ORTIQOV,
TDIU Samarqand filiali o'qituvchisi
E-mail: shahriddinortiqov499@gmail.com

SamDTU dotsenti L.Umonova taqrizi asosida

KINO SAN'ATINING SHAKLLANISHIDA ESTETIK MADANIYAT O'RNI VA UYG'UNLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kino san'atining shakllanish jarayonida estetik madaniyatning tutgan o'rni va uning san'at bilan uyg'unlikdagi ifodasi tahlil qilinadi. Kino – bu nafaqat ko'ngilochar vosita, balki jamiyat estetik didini shakllantiruvchi kuchli madaniy fenomen sifatida o'rganiladi. Asarda kino san'ati orqali estetik mezonlar, obrazlar va musiqaning uyg'unligi, vizual ifoda va badiiy tasvirlar orqali inson qalbida go'zallik tuyg'usini uyg'otish jarayoni yoritiladi. Aynan shu davrdan insonlar ekranga nigoxi qadalaishini estetik ehtiyojlarini qondirilishini ko'ramiz.

Kalit so'zlar: Kino, ovoqli kino, madaniyat, estetika, sinematografi.

РОЛЬ И ГАРМОНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ КИНО

Аннотация

В статье анализируется роль эстетической культуры в формировании кино и ее выражение в гармонии с искусством. Кино изучается не только как средство развлечения, но и как мощное культурное явление, формирующее эстетический вкус общества. В работе освещается процесс пробуждения чувства прекрасного в душе человека через искусство кино, гармонию образов и музыки, визуальное выражение и художественные образы. Именно с этого периода мы видим удовлетворение эстетических потребностей людей, глядя на экран.

Ключевые слова: Кино, звуковое кино, культура, эстетика, кинематография.

THE ROLE AND HARMONY OF AESTHETIC CULTURE IN THE FORMATION OF CINEMA

Annotation

This article analyzes the role of aesthetic culture in the formation of cinema and its expression in harmony with art. Cinema is studied not only as an entertainment medium, but also as a powerful cultural phenomenon that shapes the aesthetic taste of society. The work highlights the process of awakening a sense of beauty in the human soul through the art of cinema, the harmony of images and music, and the visual expression and artistic images. It is from this period that we see people's aesthetic needs being satisfied by looking at the screen.

Key words: Cinema, sound cinema, culture, aesthetics, cinematography.

Kirish. Kino san'atimi yoki sanoatmi insonlarni zavqlantirish kuldurish dramatikaga solish, ongning o'zgartirish va malum bir g'oyalarni o'yg'otadi. Madaniyatda kino ham san'at ham adabiyot ham musiqa ham ijodkorlik sifatida baholanadi. Estetik madaniyat insoniyatning go'zallikka munosabati, badiiy tafakkuri va ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim hodisa bo'lib, u tarixiy taraqqiyot jarayonida turli san'at turlarida, ayniqsa, kino san'atida o'zining chuqur aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili. Kino - bu zamonaviy estetik tafakkurning eng yorqin va ommaviy ifoda shakllaridan biridir. U insoniyat tafakkuridagi go'zallik, haqiqat, ezgulik kabi falsafiy tushunchalarni obrazlar orqali yoritadi. Ushbu maqolada kino san'atining shakllanishida estetik madaniyatning tutgan o'rni, u bilan uyg'unlikda kechuvchi jarayonlar falsafiy va madaniy kontekstda tahlil qilinadi. Shu o'rinda san'at sifatida kino ijodkorlikka undasa sanoat sifatida mablag' keltrish ishchi kuchlarga dam oldiradigan madaniy xordiq beradigan xodisadir. Qiziq joylarini to'xtatib qoyib reklama qo'yib mablag' ishlab olishiga aytiladi. Odatda estetik zavq beruvchi kinolar mualiflik, komediya, tarixiy filmlar sifatida nomoyon bo'ladi. Tadqiqotchi Goffredo Bellonci "Endi biz o'zimizni estetika bilan tenglashtirib, kinematografiya san'atining boshqa zamonaviy san'at turlari bilan

bog'liqligini, kino ijodining texnik ehtiyojlarini va jamiyatimizdagi kino ahamiyatini o'rganishimiz mumkin" [1].

Uning yuzaga kelishi, o'z navbatida, insoniyatning badiiy madaniyati tarixida obyektiv qonuniyat bosqichi bo'ldi. Kinoda adabiyot, teatr, tasviriy san'at va musiqa tajribalari, uning estetik jihatlarini uyg'unlashtirilib, o'ziga singdirilgan holda voqelik o'ziga xos ifoda vositalarida fotografik tasvir orqali ko'rsatiladi. Kino san'atining ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va his-tuyg'ulari, umuman, ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyaviy-badiiy ta'siri kuchlidir.

O'zbek hujjatli kinosi, asosan, 30-yillardan boshlangan. F. Nazarov, N. Gasilov, V. Timkovskiy, K. Alikayev, M. Kovnat, N. G'aniyev, Y. A'zamov kabilar hujjatli kinoning dastlabki yillarida ko'tarinki ruh bilan ishladilar va ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdilar. „Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya“ (rejissor Y. A'zamov), „Ajayib ish“ (N. G'aniyev), M. Qayumov suratga olgan „O'zbek paxtakorlarining g'alabasi“, „O'zbek xalqining bayrami“ (SH. Zohidov, O.Tursunov bilan hamkorlikda), „Katta Farg'ona kanali“, „Kuchli oqim“ filmlari yuqori baholandi. Ayniqsa, „Toshkent to'qimachilar kombinati“

(1938) filmi Nyu-Yorkda o'tkazilgan jahon ko'rgazmasida Oltin medalga sazovor bo'ldi.

Urush yillari „Frontdagi do'stlarga“ (rejissor K. Yormatov), „Frontga sovg'a“ (S. Muhamedov, Y. A'zamov), „5 respublika konserti“ (A. Speshnev, Z. Sobitov) kabi badiiy-hujjatli filmlar ishlandi.

Urushdan keyin hujjatli kino ijodkorlari g'ayrat va shijoat bilan oldinga yangi qadam tashlash bilan ijodini boshladi. „To'rt darvozali shahar“, „O'zbekistonimizga keling“, „Insoniyatning besh qo'li“, „Farhod chiroqlari“ (hammasining rejissori M. Qayumov), „Sovet O'zbekistoni“ (K. Yormatov) singari kinoyilnomalarning yorqin va hayotiy kinotasmalari yaratildi.

Keyinchalik yaratilgan hujjatli filmlarda O'zbekistonda qurilayotgan zavod va fabrikalar, GESlar, qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi, fan va san'at fidoyilari hayoti va ijodi, sanoat yutuqlari, yirik xalqaro musobaqalar o'z aksini topdi: „Bahordan bahorgacha“, „13 qaldirg'och“, „Zilzila“ (M. Qayumov), „O'qituvchi“ (N. Ataulloyeva), „O'zbekiston gazi va kimyosi“ (N. Rahimboyev), „Moviy olov kishilari“ (R. Grigorev), „YO'lda va ona yurtida“, „Ashurov voqeasi“, „Ochiq aytganda“, „Izlanish davom etmokda“ (hammasining rejissori T. Nodirov) va boshqa shular jumlasidan.

Tahlil va natijalar. Kino san'ati o'zining ilk bosqichlaridanoq inson qalbiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida rivojlandi. Lumière birodarlarining birinchi filmlaridan boshlab, kino tomoshabin ongiga vizual-estetik axborotni yetkazish vositasi bo'lib xizmat qila boshladi. Chaplinning obrazi orqali esa, insoniyat kulgi va achchiq haqiqatni bir vaqtning o'zida his eta boshladi. Estetik madaniyat kino vositasida quyidagi asosiy omillar orqali shakllanadi mumkin:

Vizual obrazlar — go'zallikni ko'rish, tasvir orqali estetik zavq olish.

Musiq va tovush — his-tuyg'ularni kuchaytiruvchi estetik vosita.

Ssenariy va dramatik chiziq — hayotiy haqiqatlar va falsafiy mazmunlarni etkazuvchi yo'l.

Kameraning harakati va montaj — tafakkurni harakatga soluvchi estetik ritm.

Kino san'atining qaror topishida amerikalik kinorejissor D. Grifitnit xizmatlari katta. Birinchi bo'lib, u yirik plan, parallel montaj, kengaytirilgan panorama kabi ifodali vositalarni qo'llagan. Mana shu jarayonlar kino olamida ilk qadamlar sifatida rivojlana boshlandi. Shuningdek, S. Eyzenshteyn, Ch. Chaplin, E. Shtrogeym, K. Dreyer, K. Vidor, R. Kler qabilar ham jahon kinosi rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Bizga malumki estetika tabiiy va sun'iy tajriba manbalarini o'rganadi va odamlar bu tajriba manbalari to'g'risida qanday fikrda bo'lishadi.

Kino yaralish tarixi 1895-yil 28-dekabrda Parijda (ixtirochilar aka-uka Ogyust va Luyi Lyumerlar) tarafidan yaratilgan. Dastlab Rasmlarda o'rindiqlarga ega bo'lgan kichik zal va undagi katta yoshdagi kishilar hamda bolalar tasvirlangan. Ular hayrat va quvonch bilan ekranlarga oq to'g'ri burchakli polotnoga tikilib o'tirishardi. Bu holat aka-uka Lyumerlarning sinematografi (kinomotografiya deb atalgan) sabab yuz bergan. Kaputsinlar bulvaridagi 14-raqamli uyda joylashgan „Grand-kafe“da kishilar yig'ilishdi. Kirish narxi - 1 frank. O'sha kecha aka-uka Lyumerlar atigi 35 foiz tomoshabinni yig'ishga muvaffaq bo'lishdi. Biroq bir hafta o'tib Lyumerlarning sinematografini ko'rish istagida bo'lganlar soni o'n baravarga ortib ketdi. „Grand-kafe“

oldida katta navbatlar paydo bo'ldi. Barcha tomoshabinlar o'z o'rinlariga joylashib olgach, chiroq o'chirildi va polotno (ekran) nurga to'ldi. Bir necha soniyalar o'tib unda Liondagi Belkur maydonining surati tasviri paydo bo'ldi. Undagi surat harakatga kelmadi, tomoshabinlar esa ularni aldashgan, deb hisoblashdi. Biroq aka-uka Lyumerlar qurilmalarini buray boshlagach, aravali ot yugura boshladi, u bilan esa barcha kishilar ham harakatga kelishdi. Tomoshabinlar qarsak chalib, kulib yuborishdi. Sababi insonlar xayolot dunyosidagi estetik ideal tafakkuridagi orzularni qo'zg'altirib yuborgandek go'yo. „Misol uchun, agar siz mahsuldorligingizni oshirmoqchi bo'lsangiz, umdorligingizni oshirishingiz kerak Film mashhur tanlovdir [2].“ O'sha kecha o'nta hujjatli film namoyish etildi. Har bir rolikning davomiyligi 30-50 soniya edi. Birinchi seans dasturiga noodatiy nomga ega filmlar kirgan: „Lyumerlar fabrikasidan ishchilarning chiqishi“, „Chavandozlik mashqlari“, „Tilla baliqchalarni tutish“, „Deputatlarning Liondagi fotokongressga kelishi“, „Suv sepuvchi“, „Chaqaloqning nunushta qilishi“, „Brezent uzra sakrash“, „Liondagi Kordele maydoni“, „Dengizda cho'milish“. Ovozsiz filmlar bo'lgan.

Ovozli filmning birinchi ommaviy namoyishi 1900 yilda Parijda bo'lib o'tdi, ammo ovozli filmlar uchun tijoriy muvaffaqiyat 30 yil o'tgach keldi undan oldin shu davr mobaynida qaxramonlar ovozi eshtishga ehtiyoj bo'lganini tushungan mexnati samarasi o'laroq xozirgi kino anchaiyin rivojlangandir. Lyumerlar davrida ovozsiz faqat tasvir bilan namoyish etilgani merosi xozirgi qisqa vidiolar shortslar misolini ko'ramiz. Liondagi aka-uka Lyumerlar fabrikasi darvozasi oldida tasvirga olingan. Kartina oddiy sahnadan iborat — unda asosan ayollardan iborat bo'lgan ishchilar zavodni smenadan so'ng tark etayotgani ko'rsatilgan. Hamma uyiga shoshilayotganga o'xshaydi xursandchilik aks etadi. Filmning uchta nusxasi bor. Jurnalistlar kartinalarga turlicha izoh berishgan: masalan, ishchilarning kiyimlari har xil bo'lgan, bir nusxada ekipaj chiqib kelgan bo'lsa, boshqasida — it yugurib o'tgan. Insonlar hayotida ularni ushlab turgan ko'rinmas to'siqni yengib o'tib xursandchilik bilan uylariga shoshishlarini ko'ramiz Ikkinchi kartina ot sportiga o'rgatish jarayonini aks ettirgan. Yosh yigit bir necha bor otga o'tirishga hamda mashqlarni bajarishga urinib ko'radi, biroq bu unda yaxshi chiqmaydi. Bu estetik kategoriyanı fojiiyavilik va kulgulilik kamroq tashkil etedi. Finalda u baribir buning uddasidan chiqdi. Yani otga minib viqor bilan o'tiradi. Bu estetikani ulug'vorlik kategoriyasiga mos keladi.

Keyingi film aka-uka Lyumerlardan biri — Ogyust — kadrda o'zining kichik qizi bilan paydo bo'ladi. Erkak qizni akvarium oldida ushlab turibdi, u esa suzayotgan baliqchalarni tutish harakatida. Insonga zavqlanish hayotni davomiyligini bildiradi. Deputatlar haqidagi kinotasmada fotosuratichilik jamiyatining Liondagi kongressi ishtirokchilari tasvirchini tabriklashmoqda, ba'zilar esa uni suratga olishga harakat qilgan. Hozirgi kunda tasvirga olish ishlari o'tkazilgan yerda maxsus xotira lavhasi o'rnatilgan. Yana filmda temirchilardan biri bolg'a bilan temirni urmoqda, uning hamkasbi esa nasosni burash bilan ovora. Shundan so'ng kadrda uchinchi inson paydo bo'lib, temirchilardan biriga suv quyib bermoqda. Lyumerlarning eng komik filmi. U komediya tryuklariga asos solib bergan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu jarayon ham estetikada kulgulilik kategoriyasini bildiradi. Ushbu lavha keyinchalik boshqa kinematografchilar tomonidan qayta-qayta takrorlangan. Kadrda yana Ogyust Lyumer qizi

Andre bilan paydo bo'ladi. Bu safar ularning safiga ixtirochining rafiqasi Margerit ham qo'shildi. Er-xotinlar nonushta qilib, chaqaloqning ko'nglini ovlash bilan bandlar. Estetikani kategoriyalari kinoga ko'chganini yaqqol ko'rishimiz mumkin shu kadrlarda.

Estetik madaniyat – bu insonlarning go'zallik, san'at va estetik qadriyatlar haqidagi tushunchalari, qarashlari va hissiyotlaridir. U turli madaniyatlar va tarixiy davrlarda shakllangan bo'lib, kino san'atiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Estetik madaniyatning asosiy elementlari orasida rang, kompozitsiya, forma, va simbolizm kabi tushunchalar mavjud. Kino san'ati 19-asr oxirlarida paydo bo'lgan bo'lib, u o'zining rivojlanish jarayonida ko'plab estetik yo'nalishlarga ega bo'ldi. Dastlabki filmlar asosan texnik innovatsiyalar bilan bog'liq bo'lsa-da, keyinchalik rejissorlar va ssenaristlar estetik qadriyatlarni ifodalashga intildilar. Bu jarayonda, masalan, ekspressionizm, surrealizm va neorealizm kabi estetik oqimlar muhim rol o'ynadi.

Estetik madaniyat kino asarlarini yaratishda bir qancha jihatlaridan ta'sir ko'rsatadi:

- Vizual estetik: Ranglar, kompozitsiya va kadrlar orqali tomoshabinlarga hissiyotlarni yetkazish.
- Narrativ estetik: Hikoya strukturasini tashkil etishda estetik qadriyatlarining qo'llanilishi.
- Tovush va musiqaning roli: Kino asaridagi tovush dizayni va musiqa estetik tajribani boyitadi.

Kino san'atida estetik madaniyatning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Rejissorlar va san'atkorlar o'z asarlarida estetik elementlarni birlashtirish orqali tomoshabinlarga to'g'ri hissiyotlarni yetkazishlari mumkin. Uyg'unlik, shuningdek, kino asarining mazmuni va ko'rinishi o'rtasidagi munosabatni ham o'z ichiga oladi.

Kino san'atining shakllanishida estetik madaniyatning o'rni beqiyosdir. U nafaqat kino asarlarining vizual ko'rinishini belgilaydi, balki ularning mazmuni va tomoshabinlar bilan aloqasini ham shakllantiradi. Estetik qadriyatlarining uyg'unligi esa, kino san'atining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytgand kino san'ati estetik madaniyatning nafaqat ifodasi, balki uni shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. U inson tafakkurini tarbiyalaydi, go'zallikni anglashga undaydi, estetik qadriyatlar orqali ma'naviy o'sishga turtki beradi. Kinoda aynan madaniyat namunalarini turli janrlarda odamlarga malum bir vaqtda ko'rsatiladi. Kinoda tasavurni ommaviy madaniyat orqali tushinib olish, yaratish va ijro etish shuningdek odamlarning kinodan qanday zavqlanishi va tanqid qilishni o'z-o'zi bilan munozara qilishni taqozo etadi. Ayniqsa yosh avlodning estetik dunyoqarashini shakllantirishda kino vositasi nihoyatda samarali hisoblanadi. Shu sababli kino san'atiga nafaqat texnik, balki falsafiy-estetik yondashuv bilan qarash zarur.

ADABIYOTLAR

1. "The Aesthetics of Cinema" Goffredo Bellonci Amsterdam University Press, Amsterdam 2018 328pp
2. Культурология и искусствоведение // Маслякова А.И. Эстетика кино в контексте слияния различных областей искусства 2021 15-16 с
3. Шер А., Хусанов Б.. Эстетика. Тошкет Ўз файласуфлари миллий жамияти нашрети. 2010. 145 бет.
4. Hasanov B., O'zbek hujjatli kinosi, Toshkent, 1972-yil.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kino_san%CA%BCati